BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

KENJAYEV ULUG'BEK MURATOVICH

SHAXS BEFARQLIGI: MAZMUNI VA SHAKLLARI, SABABLARI VA OQIBATLARI, BARTARAF QILISH IMKONIYATLARI

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

FALSAFA FANLARI BO`YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Falsafa fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по философским наукам

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on philosophical sciences

Kenjayev Ulugʻbek Muratovich
Shaxs befarqligi: mazmuni va shakllari, sabablari va oqibatlari,
partaraf qilish imkoniyatlari5
Кенджаев Улугбек Муратович
Іичностное безразличие: содержание и формы, причины и последствия,
зозможности устранения23
Kenjayev Ulugbek Muratovich
Personal indifference: content and forms, causes and consequences, possibilities of
limination45
E'lon qilingan ishlar ro'yxati
Список опубликованных работ
List of works published

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

KENJAYEV ULUG'BEK MURATOVICH

SHAXS BEFARQLIGI: MAZMUNI VA SHAKLLARI, SABABLARI VA OQIBATLARI, BARTARAF QILISH IMKONIYATLARI

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

FALSAFA FANLARI BO`YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oʻzbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fal1156 raqam bilan roʻyxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (oʻzbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sharipov Abduxakimjon Ziyoitdinovich

falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xuseynova Abira Amonovna falsafa fanlari doktori, professor

Bekmurodova Gulshod Xaitovna falsafa fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruychi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil "<u>JO</u>" <u>avgusf</u> soat <u>IO</u> dagi majlisida boʻlib oʻtadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol koʻchasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (411 raqami bilan roʻyxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol koʻchasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "<u>16</u>" <u>awgust</u> kuni tarqatildi. (2024 yil "<u>16</u>" <u>august</u> dagi <u>11</u> raqamli reyestr bayonnomasi.)

Namozov B.B. Abriy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, fanlari doktori, professor

Muzaffarov F.D. Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,

falsafa fanlari doktori, professor

Safarova N.O.

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashuv va raqobat tobora kuchayib borayotgan vaziyat shaxsning ijtimoiy voqelikka shart-sharoitlarda moslashish, faoliyat ko'rsatish imkoniyatlarini yangi murakkablashtirib, ijtimoiy jarayonlarga moslasha olmayotgan kishilarda befarqlik alomatlarini shakllantira boshladi. Bu borada ezgulik va insonparvarlik tamoyili asosida yoshlar faolligini oshirish, jamiyatda sogʻlom dunyoqarash va ijtimoiyma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlash, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirishda san'at va madaniyat, adabiyot va ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish zarurati oshib bormoqda. Shuning uchun barqaror ijtimoiy taraqqiyotga destruktiv ta'sir oʻtkazuvchi shaxs befarqligi illatining sabab va oqibatlarini aniqlash, ijtimoiy oʻzgarishlarning intensivlashuvi, axloq normalarining yangilanishi va turmush tarzi transformatsiyasi sharoitida uni bartaraf etish yoʻllarining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani, ilmiy va strategik tadqiqot markazlarida loqaydlik, beparvolik, befarqlik hodisasini jamiyatning iqtisodiy, siyosiy sohalari va strukturaviy tuzilishidagi inqiroz bilan aloqadorlikda talqin etish, ijtimoiy taraqqiyotga ta'sirini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Shaxs befarqligiga barham berish zamonaviy jamiyatda ham voqelikka moslashish usuli, ham ijtimoiy faollik shakli sifatida milliy oʻzlikni anglashga qaratilgan hatti-harakatlarni, yuksak siyosiy madaniyat va faol fuqarolik pozitsiyasini namoyon etadi. Shu bois postmodern jamiyatda "intensiv ijtimoiy oʻzgarishlar — shaxs befarqligi", "ijtimoiy normalar tizimining yangilanishi — shaxs befarqligi", "turmush tarzi transformatsiyasi — shaxs befarqligi" kontekstida befarqlikning mazmuni va mohiyati, shaxs ongiga ta'sir koʻrsatayotgan omillar, befarqlikning turli shakllari va ijtimoiy oqibatlarini hamda shaxsdagi befarqlik alomatlariga barham berish imkoniyatlarini tadqiq etishning zaruriyati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevori barpo etilayotgan hozirgi tarixiy jarayonda yoshlarni yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, vatanparvar va xalqparvar etib tarbiyalashga hamda el-yurt taqdiriga loqaydlik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Qanchalik qiyin boʻlmasin, biz yoshlar tarbiyasi boʻyicha oʻzimizga xos va ta'sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzgʻunchi va zararli gʻoyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma'naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur. Bunday salbiy holatlarni bartaraf etishda barchamiz, avvalo, siz, aziz yoshlar faol boʻlishingiz kerak". Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda, avvalo, shaxs befarqligini keltirib chiqaradigan sabablarni aniqlash, uning tarkibini, namoyon boʻlish xususiyatlarini, ijtimoiy befarqlik hissining ekzistensial asoslarini tadqiq qilish hamda bartaraf etish imkoniyatlarini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi Oʻzbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-Jild. - Toshkent: "Oʻzbekiston", 2023. - B.165.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi O'RQ-406-son "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 10-apreldagi PF-5005-son "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 3-maydagi PQ-4307-son 2019-yil "Ma'naviy-ma'rifiy farmonlari, samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil "Ma'naviy-ma'rifiy PQ-5040-son ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida", 2023-yil 20-yanvardagi PQ-10-son "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar toʻgʻrisida" qarorlari, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida" qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi,

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari" nomli ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda shaxs befarqligining mazmuni va shakllari, sabablari va oqibatlari uzoq yillardan buyon oʻrganib kelinadi. Biroq XX asrga kelibgina u murakkab va koʻp aspektli ijtimoiy, siyosiy, ekzistensial va psixologik muammo sifatida talqin qilina boshlandi. Xususan, X.Ortega-i-Gasset, G.Blumer, J.Bodriyyar befarqlikni ommaviy jamiyatning ajralmas va muhim atributlaridan biri sifatida tavsiflagan. Ch.Millz va P.Burde shaxs befarqligining siyosiy jarayonlar bilan aloqadorliginitadqiq etishga e'tiborni qaratdi. G.Markuze uni iqtisodiy erksizlik va iste'molchilik jazavasi hosilasi sifatida ta'rifladi. A.de Tokvil uning ijtimoiy turmush bilan bogʻliq jihatlariga diqqatni jamladi. Neofreydizm vakili E.Fromm hamda Z.Bauman ommaviy jamiyatdagi moddiy farovonlik, axborot bisyorligi "baxtli befarqlik" holatini vujudga keltirganini ochib berdi².

XXI asrga kelib shaxs befarqligini ijtimoiy muammolardan biri sifatida uning tabiatini oʻrganishga, sabab va oqibatlarini aniqlashga, bartaraf etish yoʻllarini izlashga boʻlgan ilmiy intilishlar faollashdi. Jumladan, S.Axmad, Y.Eng, P.Lokvud,

Ортега-и-Гассет X. Восстание масс.// Избранные труды.- М.:Весь мир, 1997.; Блумер Г. Коллективное поведение. // Американская социологическая мысль.- М.: Изд-во МГУ, 1994. -С.90-115; Бодрийяр Ж. В тени молчаливого большинства, или конец социального.- Екатеринбург: Изд-во Уральского университета, 2000.; Mills, C. W. White Collar: The American Middle Classes (50th anniversary ed.).- New York: Oxford University Press, 2002; Бурдьё П. Начала. - М.: Socio-Logos, 1994.; Маркузе Г. Одномерный человек. — М.: «Refl-book», 1994.; Токвиль А. Демократия в Америке.- М.: Прогресс, 1992.; Фромм Э. Бегство от свободы.- М.:АСТ, 2009; Бауман З. Свобода.- М.: Нвое изд-во, 2006.

M.Apps, K.Muhammad, M.Husayn, V.Dal, E.Amna, Sh.Banadji, M,Landberg, J.SHerek, N.Ribeyro, M.Beylmann, V.Pavlopulos, B.Zani, O.Gaderzade, M.Radman ilmiy ishlarida shaxs befarqligining tipologiyasi tadqiq etilib, ularni vujudga keltiruvchi ijtimoiy va shaxsiy omillar xususida fikr yuritilgan³.

Mustaqil davlatlar hamdoʻstligi mamlakatlarida R.Abdraximova, V.Argunova va A.Rus, L.Babaxova, Ye.Bikova, Ye.Ismailova, O.Kulikova va N.Limanova, A.Latisheva, V.Kasyanov va S.Samigin, V.Morozova, Y.Nabok, S.Yaremenko va L.Pazina kabi tadqiqotchilar turli tabaqa va sinf vakillarida befarqlik alomatlarining paydo boʻlishi sabablarini, M.Karoubi, S.Firdovsiy maqolalarida ijtimoiy apatiyaning turistik salohiyatgaa ta'siri, R.Radakovich va Sh.Abraxam befarqlik darajalarini aniqlashga doir yangi shkalani ishlab chiqishga diqqatni jamladilar⁴.

Oʻzbekistonda ham mavzuga doir ilmiy ishlar e'lon qilinib borilmoqda. Ularda shaxs befarqligi qator ijtimoiy omillar ta'sirida shakllanayotgani ochib beriladi, uning ijtimoiy oqibatlariga doir ijtimoiy bashoratlar ilgari suriladi. Jumladan, Q.Nazarov, Z.Qodirova, A.Choriyev, A.Erkayev kabi faulasuflarning tadqiqotlarida inson va jamiuat oʻrtasida aloqadorlikning nazariy masalalari, G.Bekmurodova, E.Ibragimov, A.Muxtorov, R.Rustamov ilmiu ishlarida yoshlar ijtimoiy faolligiga ta'sir koʻrsatauotgan zamonaviu omillar tadqiq etildi. S.Otamurodov, A.Sharipov, J.Yaxshilikov va N.Muxammadiyev, N.Joʻrayyev, B.Toʻychiyev, A.Huseynova ilmiy ishlarida Oʻzbekistonda shaxs faolligini yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar umumlashtiriladi⁵.

-

³ Ahmad S. Role of Socioeconomic Status and Political Participation in Construction of Apathy Among Youth.//
Journal of Human Behavior in the Social Environment, 2015, №8. - PP. 801-809; Ang Y.S., Lockwood P., Apps M.
A. J., Muhammed K., Husain M. Distinct Subtypes of Apathy Revealed by the Apathy Motivation Index // PLOS
ONE, 2017, №1. - PP.1-15; Dahl V., Amna E., Banaji Sh., Landberg M., Šerek J., Ribeiro N., Beilmann M.,
Pavlopoulos V., Zani B. Apathy or alienation? Political passivity among youths across eight European Union
countries.// European Journal of Developmental Psychology, 2018, №3. - PP.284-301; Ghaderzadeh O., Radman M.
Social Apathy of the Youth and the Cultural-Social Rupture (A Survey on Youth in Bookan City) // Strategic studies
on youth and sports, 2018, -№39. - PP.59-76;

⁴ Абдрахимова Р.Г. Искаженное восприятие системы ценностей современным обществом в контек-сте проблемы социальной апатии // Инновационная наука, 2015, Т. 1, -№ 1–2. – С.157-160; Аргунова В.Н., Русь А.А. Проявления социальной апатии у студенческой молодежи // Вестник Пермского национального исследовательского политехнического университета. Социально-экономические науки, 2019, № 4. – С.89-99; Бабахова Л.Г. О некоторых аспектах трансформации понятия апатии в контексте общества потребления // Гуманитарные и социальные науки, 2019, № 6. – С.10-16; Быкова Е.Ю. Социальная апатия как характеристика состояния учителей в современном обществе (социально-философский анализ): Автореф. дисс. ... канд. филос. наук.- Томск: ТГУ, 2017; Исмаилова Е.В. Преодо-ление социальной апатии студенческой молодежи средствами культурно-досуговой деятельности // Вестник Челябинской государственной академии культуры и искусств, 2009, № 4. – С.80-86; Куликова О.А., Лиманова Н.И. Волонтерская деятельность как механизм преодоления социальной апатии молодежи // Вестник университета, 2018, № 1. -С.168-171; Латышева А.Т., Касьянов В.В., Самыгин С.И. Социальная апатия как фактор формирования аддиктивного поведения в молодежной среде // Гуманитарные, социально-экономи-ческие и общественные науки, 2018, № 3. – С.40–43; Морозова В.Б. Социальная апатия и ее императивы // Гуманитарные и социально-экономические науки, 2010, № 2.- 32-36-с; Набок Ю. В. Феномен социальной апатии в современном обществе: дисс. ... канд. филос. наук.-Самара: Самарский филиал МГПУ, 2005; Яременко С. Н., Пазина Л. О., Бабахова Л. Г. Социокультурный габитус апатии в транзитивном обществе.- Ростов н/Д: Изд. ДГТУ, 2010. Karoubi M., Ferdowsi S. Impact of Perceived Social Apathy on Tourists' Behavioral Intentions. // Leisure Studies, 2021; Radakovic R., Abrahams Sh. Developing a new apathy measu-rement scale: Dimensional Apathy Scale.// Psychiatry Research, 2014, №3.- PP. 658-663.

⁵ Назаров Қ.Н. Жаҳон фалсафаси қомуси. 1-китоб. – Тошкент: "Маънавият", 2019. – 920 б.; Назаров Қ.Н. Жаҳон фалсафаси қомуси. 2-китоб – Тошкент: "Маънавият", 2019. – 924 б.; Кадырова З.Р. и др. Проблемы формирования идеологического иммунитета молодежи в процессе развития у неё современного

Mavzuga oid tadqiqotlar tahlilidan "befarqlik" tushunchasini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tavsiflash, uning oqibatlarini ilmiy tahlil etish, Oʻzbekiston sharoitida namoyon boʻlishi xususiyatlarini aniqlash, uni bartaraf etish imkoniuatlarini ochib berish kun tartibida qolmoqda. Bu esa befarqlikning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berish hamda taraqqiyotga salbiy ta'sirini aniqlash zaruriuatini vujudga keltirmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Navoiy davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band "Barkamol inson shaxsini shakllantirish va uning ijtimoiy-pedagogik mohiyati" (2022-2026 yy.) tadqiqot yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Oʻzbekistonda namoyon boʻlayotgan shaxs befarqligi alomatlarining sabab va oqibatlarini aniqlash asosida uni bartaraf etish imkoniyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"befarqlik" tushunchasi mazmuni va komponentlarini, uni yuzaga keltiradigan ijtimoiy va ruhiy omillarni aniqlash;

zamonaviy kishilik jamiyatida shaxs befarqligi namoyon boʻlish shakllarini tadqiq etish;

Oʻzbekiston sharoitida befarqlik alomatlarini yuzaga keltirayotgan ijtimoiy, ma'naviy-madaniy va shaxsiy-ruhiy sabablarni ochib berish;

jamiyat a'zolarining befarqligini keltirib chiqarayotgan ijtimoiy va shaxsiy oqibatlarni tavsiflash;

Oʻzbekiston sharoitida shaxs befarqligini bartaraf etish imkoniyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida shaxs ruhiyatidagi befarqlik alomatlarini kelitirib chiqarayotgan jarayonlar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti shaxs ruhiyatidagi befarqlik illatining atributlari va uning namoyon boʻlishi shakllari, sabablari va ijtimoiy oqibatlarini tadqiq etish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

мировоззрения и национальной идентичности. - Ташкент: Национальный университет Узбекистана, 2012. - 202 с; Чориев А. Инсон фалсафаси. Ижтимоий тарбия. Учинчи китоб. - Т.: "Ilm-fan va ma'naviyat", 2024. – 343

Тошкент: Чўлпон, 2018. - 722 б.; Жўраев Н. Тамаддунга даъват тараққиёт стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 264 б.; Б.Тўйчиев. Политическая культура и демократизация общества. Тошкент, - 2010. – 282 с.;

Хусейнова А.А. Янги Ўзбекистон: фукаролик жамияти ва аёллар фаоллиги. – Тошкент, 2023.

8

б.; Эркаев А. Маънавиятшунослик. Маьнавият методологияси ва праксиологияси. –Тошкент: "Маънавият". 2018. – 456 б.; Бекмуродова Г.Х. Бефарклик ва нописандлик – ижтимоий конформизм окибати. //ҚарДУ хабарлари.- Қарши, 2018.-№1.- Б. 78-80.; Ибрагимов Э.Ҳ. Маънавий-рухий манипуляциянинг ёшлар дунёкарашига таъсири: Фалс.ф. бўйича фалс.д. (PhD) дисс.автореф.- Самар-қанд: СамДУ, 2020; Мухторов А. Глобаллашув шароитида маънавий тахдидларни бартараф этиш омиллари.- Т.: Маънавият, 2015; Рустамов Р.Р. Геополитик ракобат шароитида маънавий тарғибот системасидаги атрибутив ўзгаришлар: муаммолар ва ечимлар: Фалс. д. (PhD) дисс.- Самарканд: СамДУ, 2019.; Отамуродов С. Глобаллашув: миллатни асраш масъулияти. – Тошкент: "О'zbekiston", 2018. – 352 б.; Шарипов А.З. Янги Ўзбекистонда маънавий-маърифий ислохотлар трансформациясикнинг ижтимоий фалсафий тахлили: Фалс.ф.д. (DSc) дисс. автореф.- Бухоро: БухДУ, 2021.; Яхшиликов Ж., Мухаммадиев Н. Миллий ғоя: Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси. –

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

shaxs befarqligi ijtimoiy oʻzgarishlarni intensivlashuvi, ijtimoiy vorisiylik zanjiri buzilishi, ijtimoiy normalar yangilanishi, turmush tarzi transformatsiyasi, axborot almashinuvi jadallashishi kabi ijtimoiy, umidsizlik, iqtidorsizlik, erksizlik, qadriyatlar qadrsizlanishi, yolgʻizlik kabi ruhiy omillar ta'sirida shakllanishi falsafiy asoslangan;

Oʻzbekistonda shaxs ongiga ta'sir koʻrsatayotgan jamoatchilik fikrini oʻrganish amaliyoti tizimsizligi, ekologik ta'lim va tarbiya samarasizligi, aholiga xizmat koʻrsatish madaniyati pastligi, jamiyatning individuallashishi, madaniy diffuziya jarayonlari kuchayishi, axborotlar haqqoniyligini aniqlash malakasi shakllanmagani, mafkuraviy ta'lim zaiflashgani kabi sabablar befarqlikni yuzaga keltirishi mantiqiy isbotlangan;

Oʻzbekistonda befarqlikning ijtimoiy oqibatlari ijtimoiy konformizm xavfi oshishida, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish imkoni cheklanishida, ekologik muhitni sogʻlomlashtirish imkoni pasayishida, iste'mol bozorini optimallashtirish imkoni kamayishida, axloqiy muhitni sogʻlomlashtirish jarayoni sekinlashishida, jamiyat estetik yuksalishi zaiflashishida, axborot xavfsizligiga putur yetishida namoyon boʻlishi determinatsiya tamoyillari asosida ochib berilgan;

shaxsdagi befarqlik alomatlariga barham berish imkoniyatlari (jamiyat a'zolarining mafkuraning ijtimoiy ahamiyati haqidagi qarashlarini o'zgartirish, milliy g'oya va milliy mafkurani ta'lim tizimi asosida keng targ'ib etish) .kabi ijtimoiy xabardorlik darajasini oshirish hamda vatanparvarlik tarbiyasini mazmunan boyitish (Vatan tuyg'usini shakllantirish, vatanparvarlik g'oyasini singdirish, vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish) kabi omillar bilan bog'liqligi mantiqiy dalillangan.**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

shaxs befarqligi holatining ijtimoiy jarayonlarga qiziqishning soʻnishi, voqelikka neytral munosabatda boʻlish (hissiy), ijtimoiy bilimni oʻzlashtirmaslik, voqelikning sabab va oqibatini analitik tahlil etmaslik (gnoseologik), shaxsiy qadriyatlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlardan ustuvor qoʻyish (aksiologik) hamda faol fuqarolik pozitsiyasi va dahldorlik hissining yoʻqligi kabi (praksiologik) jihatlari aniqlashtirilgan;

shaxs befarqligiga barham berishda iqtisodiy xabardorlik, ekologik xabardorlik, siyosiy xabardorlik huquqiy xabardorlik, axloqiy xabardorlik, estetik xabardorlik, madaniy xabardorlik mafkuraviy xabardorlik kabi jamiyatdagi jarayonlardan xabardorlik darajasini oshirishga qaratilgan ijtimoiy mexanizmlarni takomillashtirish zarurati asoslab berilgan;

jamiyat a'zolariga vatanparvarlik g'oyasini singdirishning ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar ko'lamini oshirish, madaniyat va ma'rifat maskanlari rolini oshirish, fuqarolarni vatanparvarlik faoliyatiga jalb qilishda majburiylik elementlaridan butkul voz kechish kabi yo'nalishlari hamda vatanparvarlik tarbiyasining yagona maqsad atrofida birlashish, uzviylik va uzluksizlik, tinchlik va taraqqiyotni ta'minlash, shaxsni bunyodkorlik faoliyatiga safarbar qilish tamoyillari ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qoʻllanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar,

statistik ma'lumotlar, sotsiologik soʻrov natijalariga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan oʻtkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari boʻyicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan boʻlib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilgari surilgan konseptual gʻoyalardan ma'naviy yuksalish, shaxs befarqligini postmodern jamiyat fenomeni sifatida talqin qilish, yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqishda hamda shaxs befarqligiga doir yaxlit ijtimoiy-falsafiy nazariyani shakllantirishda, ta'lim-tarbiya sohasiga doir ilmiy tadqiqot ishlarida metodologik asos sifatida va madaniy-ma'rifiy muassasalar, mahalla, oila markazlari, ijtimoiy faollikni rivojlantirish bilan shugʻullanuvchi markazlar, ma'naviy-madaniy tarbiya oʻchoqlarining oʻzaro hamkorlikda, ishonch va hamjihatlik ruhida qonun ustuvorligi, tinchlik-osoyishtalikni yanada mustahkamlashga qaratilgan faoliyatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yoshlar siyosatini amalga oshiruvchi ijtimoiy institutlarning ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish, aholining intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirishga, mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga doir chora-tadbirlarini amalga oshirish, "Iqtisodiy bilim markazlari"ni tashkil qilish va faoliyatini yo'lga qo'yish, "Fuqarolarning axloqiy xabardorligini oshirish umummilliy dasturini" ishlab chiqish va qabul qilishda, ta'lim muassasalarida uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda, fuqarolik jamiyati institutlari, siyosiy tashkilotlarining partiyalar, nodavlat notijorat kompleks chora-tadbirlarni targ'ibot-tashviqot jarayonida, "Falsafa", belgilashda "Dinshunoslik", "Ma'naviyatshunoslik" kabi fanlarni o'qitishda, talabalar bilan uyushtiriladigan davra suhbatlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Shaxs befarqligining sabab va oqibatlarini aniqlash hamda uni bartaraf etish imkoniyatlarini tadqiq qilish borasida olingan ilmiy natijalar asosida:

shaxs befarqligi ijtimoiy oʻzgarishlarni intensivlashuvi, ijtimoiy vorisiylik zanjiri buzilishi, ijtimoiy normalar yangilanishi, turmush tarzi transformatsiyasi, axborot almashinuvi jadallashishi kabi ijtimoiy, umidsizlik, iqtidorsizlik, erksizlik, qadriyatlar qadrsizlanishi, yolgʻizlik kabi ruhiy omillar ta'sirida shakllanishiga doir nazariy mulohazalar va xulosalardan Oʻzbekiston Milliy universitetida bajarilgan PZ-20170928696-raqamli "Oʻzbekistonda islohotlar jarayonini tahlil etish va amalga oshirishning konseptual-falsafiy metodologiyasi (Harakatlar strategiyasi asosida)" (2018-2020-yy) amaliy loyihada belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universitetining 2024 yil 11 maydagi 04/11-4439-son ma'lumotnomasi). Natijada,

yoshlar qalbida xalqimizga xos boʻlgan yuksak ma'naviy fazilatlami shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar muvofiqlashtirishga, huquqiy ong va madaniyatni rivojlantirish orqali ma'aviy-ma'rifiy ishlar samaradorligiga erishish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qilgan;

Oʻzbekistonda shaxs ongiga ta'sir koʻrsatayotgan jamoatchilik fikrini oʻrganish amaliyoti tizimsizligi, ekologik ta'lim va tarbiya samarasizligi, aholiga xizmat koʻrsatish madaniyati pastligi, jamiyatning individuallashishi, madaniy diffuziya jarayonlari kuchayishi, axborotlar haqqoniyligini aniqlash malakasi shakllanmagani, mafkuraviy ta'lim zaiflashgani kabi sabablarning befarqlikni yuzaga keltirishiga oid ilmiy yangiliklar va takliflardan Oʻzbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining huzuridagi Tergov departamentining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10 aprel 2017 yildagi PF-5005-son "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini to'g'risida" kuchaytirish chora-tadbirlari farmonida hamda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2021-yil 21-oktabr kunidagi 400-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirishga oid choratadbirlar rejasi"da belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan Repsublikasi (O'zbekiston Ichki ishlar vazirligi huzuridagi **Tergov** departamentiningp 2024 yil 22-maydagi 18/3569-son ma'lumotnomasi). Natijada, ichki ishlar organi xodimlarida mamlakatimizda davlat qurilishi va boshqaruvi, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, huquqiy va xavfsizlikni ta'minlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati va vazifasini anglashga, ularning dunyoqarashlarini kengaytirishga, befarqlik, ishga yuzaki munosabatda boʻlish va rasmiyatchilik, aholi bilan muloqot qilish madaniyati kabi muammo kamchiliklarni hal etish borasida olib borayotgan faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

Oʻzbekistonda befarqlikning ijtimoiy oqibatlari ijtimoiy konformizm xavfi oshishida, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish imkoni cheklanishida, ekologik muhitni sogʻlomlashtirish imkoni pasayishida, iste'mol bozorini optimallashtirish imkoni kamayishida, axloqiy muhitni sogʻlomlashtirish jarayoni sekinlashishida, jamiyat estetik yuksalishi zaiflashishida, axborot xavfsizligiga putur yetishida namoyon boʻlishiga doir nazariy xulosalar va amaliy taklif-tavsiyalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2022-2023 yillarda o'tkazgan targ'ibot faoliyatida, jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida" qaror dasturining IV-bob "Yoshlarning kelajakka ishonchi, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishni shaxsning ustuvor xususiyati sifatida mustahkamlash, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik tuygʻusini kuchaytirishga qaratilgan treninglar dasturini ishlab chqish" va 52-bandi "Yoshlarda oilaviy burch, oilada o'zaro ishonch, sadoqat mehr-muhabbat va hamjihatlikni mustahkamlash malakalarini shakllantirish, ma'naviy barqarorlikni ta'minlash. yosh ota-onalarda farzand tarbiyasi uchun mas'ullik, oilani boshqarish, moddiy farovonlikka erishish uchun zarur bilim, koʻnikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan qoʻshma dastur va loyihalarni ishlab chiqish" mavzusida targʻibot ishlarini tashkil etish va oʻtkazishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2024-yil 22-maydagi 220-son ma'lumotnomasi). Natijada, shaxsdagi befarqlik alomatlariga barham berish imkoniyatlari uning ijtimoiy xabardorligi darajasini oshirish va vatanparvarlik tarbiyasini mazmunan boyishiga xizmat qilgan;

shaxsdagi befarqlik alomatlariga barham berish imkoniyatlari (jamiyat a'zolarining mafkuraning ijtimoiy ahamiyati haqidagi qarashlarini o'zgartirish, milliy g'oya va milliy mafkurani ta'lim tizimi asosida keng targ'ib etish) .kabi ijtimoiy xabardorlik darajasini oshirish hamda vatanparvarlik tarbiyasini mazmunan boyitish (Vatan tuygʻusini shakllantirish, vatanparvarlik gʻoyasini singdirish, vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish) kabi omillar bilan bogʻliqligiga oid taklif-tavsiyalardan mulohazalar O'zbekiston nazariy va teleradiokompaniyasi Navoiy viloyat teleradiokompaniyasining teleko'rsatuvlari va radioeshittirishlarini tayyorlashda, jumladan 2023-2024 yillarda efirga uzatilgan "Inson qadri", "Yoshlar ovozi", "Diyor 24» va "Mavzu" koʻrsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Navoiy teleradiokompaniyasining 2024-yil 21-maydagi 01-01/93-son viloyati ma'lumotnomasi). Natijada, efirga uzatilgan teleko'rsatuvlar, davra suhbatlari jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga toʻsqinlik qilayotgan ichki tahdidlar korrupsiya, mahalliychilik, loqaydlik va ota-onalarning yoshlar tarbiyasiga e'tiborsizligi kabi holatlarga barham berishda aholining faolligini kuchaytirishga, ijtimoiy-ma'naviy hayotda bunyodkorlik g'oyalarini kuchaytirish va yanada mustahkamlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi boʻyicha jami 22 ta ilmiy ish, jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola (4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 130 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi, muammoning oʻrganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekti, predmeti, tadqiqotda qoʻllanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining

ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi boʻyicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi ""Befarqlik" tushunchasini ijtimoiy-falsafiy tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari" deb nomlanib, unda befarqlik" tushunchasining mazmuni, talqini, omillari va ijtimoiy oqibatlari hamda zamonaviy kishilik jamiyatida shaxs befarqligining namoyon boʻlish shakllari tadqiq etilgan, u shaxsning oʻziga xos ruhiy holatini ifodalovchi fenomen sifatida ochib berilgan.

Shaxs befarqligi mazmuni va shakllariga doir mulohazalar uzoq tarixga ega. Dastavval bu holat qadimgi dunyo falsafasida negativ mazmunda talqin qilinmagan⁶. Oʻrta asrlar xristian etikasida ham befarqlik neytral mazmunda ta'riflanadi⁷. Oʻrta asrlar Sharq falsafasida esa befarqlikning birmuncha boshqacharoq talqinlari vujudga keldi. Koʻplab musulmon faylasuflari ta'kidiga koʻra, har qanday befarqlik ham fazilat boʻlavermaydi⁸. Toʻgʻri, dunyoviy ishlarga, oʻtkinchi hoyu-havaslarga, moddiy ne'matlarga befarqlik, ya'ni nafsni jilovlay bilish xislati oqillik belgisidir. Biroq umumijtimoiy manfaatlarga, xalq dardutashvishiga befarqlik fazilat sanalmaydi. Renessans davrining antropotsentrik falsafasi ham ijtimoiy faollikni, mehnat faoliyatini insonni qalban poklikka undovchi manba sifatida talqin qila boshladi⁹. Bu paradigma keyinchalik XVII-XVIII asrlarda Yevropada ijod qilgan ingliz faylasuflari F.Bekon, T.Gobbs, J.Lokk, fransuz ma'rifatparvarlari F.Volter, E.de Kondilyak, J.J.Russo, P.Golbaxlar tomonidan har tomonlama rivojlantirildi¹⁰.

Dissertant jamiyat taraqqiyoti uning a'zolari faolligiga bogʻliqligi, insonning ma'naviy yetukligi esa uning umumijtimoiy manfaatlarga xizmat qilishi bilan belgilanishi, ijtimoiy jarayonlarga loqaydlik jamiyatning ham, shaxsning ham tanazzuliga sabab boʻlishi haqidagi mulohazalarini XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida faoliyat koʻrsatgan Markaziy Osiyolik ma'rifatparvarlar Ahmad Donish, S.Abdulgʻafforov, Mahmudxoʻja Behbudiy, Abdulla Avloniy qarashlari bilan asoslab bergan. Mazkur nazariy asoslarga tayangan holda XX asr faylasuflari, sotsiologlari va psixologlarining qariyb barchasi befarqlikni oqillik va osoyishtalik belgisi emas, jiddiy ijtimoiy, siyosiy, ekzistensial va psixologik muammo sifatida tavsiflaganlarini ta'kidlab oʻtgan¹¹.

Tadqiqotda befarqlik – shaxsning hayotiy maqsadlardan mosuvolikda, ijtimoiy jarayonlarga loqayd munosabatda, muayyan faoliyatga moyillikning zaifligida, oʻz ifodasini topadigan ruhiy holati sifatida baholangan. Ushbu ruhiy holatning oʻziga

13

⁶ Qarang: Чориев А. Инсон фалсафаси. Инсон тўғрисидаги фалсафий фикрлар тараққиёти. Биринчи китоб. - Т.: Ўзб.файл. миллий жам. нашр., 2007. - Б.376

⁷ Qarang: Понтийский Е. Слово о духовном делании, или Монах. // Творения аввы Евагрия: Аскетические и богословные трактаты.- М.: Мартис, 1994. - С.94-112

⁸ Qarang: Чориев А. Инсон фалсафаси. Инсон тўғрисидаги фалсафий фикрлар тараққиёти. Биринчи китоб. - Т.: Ўзб.файл. миллий жам. нашр., 2007. - Б.212.


⁹ Qarang: Чориев А., С. Ренессанс даври Европа фалсафаси. - Т.: Тафаккур қаноти, 2015. - Б.8

 $^{^{10}}$ Qarang: Чориев А. Инсон фалсафаси. Инсон тўгрисидаги фалсафий фикрлар тараққиёти. Биринчи китоб. - Т.: Ўзб.файл. миллий жам. нашр., 2007. - Б.289-305

¹¹ Qarang: Набок Ю.В. Феномен социальной апатии в современном обществе: Автореф. дисс. ... канд. филос.н.-Самара: Самарский филиал МГПУ, 2005. - С.5.

xos hissiy, gnoseologik, aksoiologik va praksiologik jihatlari ochib berilgan. Shaxs befarqligining hissiy jihati — jamiyatda sodir boʻlayotgan jarayonlarga doir tuygʻu va kechinmalarning atrofida, gnoseologik jihati — turfa ijtimoiy bilimlarga qiziqishning soʻnishida, aksiologik jihati — shaxs qadriyatlarining jamiyat qadriyatlaridan ayri tushishida, praksiologik jihati — ijtimoiy jarayonlarga ishtirokning passivlashishida namoyon boʻlishi asoslab berilgan. Darhaqiqat, jamiyatdagi ayrim transformatsiyalar, tendensiyalar, holatlar (intensiv ijtimoiy oʻzgarishlar, ijtimoiy vorisiylik zanjirining buzilishi, ijtimoiy normalarning oʻzgarishi, turmush tarzining individuallashishi, axborotlar almashuvining intensivlashuvi) shaxsni ijtimoiy voqelikka befarq qilib qoʻyishi mumkin. Turfa ijtimoiy omillar kabi inson ruhiy olamida kechayotgan evrilishlar, kechinmalar, ehtiroslar (umidsizlik, iqtidorsizlik, erksizlik, qadriyatlarning qadrsizlanishi, yolgʻizlik) ham uni ijtimoiy voqelikka befarq qilib qoʻyishi mumkin.

Jahonning barcha mamlakatlarida oxirgi yarim asr mobaynida befarq kishilar soni koʻpaygani kuzatilmoqda. Buning ustiga, yangi yuzyillikka kelib, kishilarning befarqligi turli shakllarda namoyon boʻla boshladi. Tadqiqotchi ushbu ma'lumotlarga tayangan holda befarqlik shakllarini quyidagicha tasniflagan: (Oarang: 1-rasm)



1-rasm. Befarqlikning namoyon bo'lish shakllari

Zamonaviy jamiyatlar oʻz a'zolarining bir qismini oʻz shaxsiy hayotini, dunyoqarashi va manfaatlarini emas, jamiyat taklif qilgan hayotiy faoliyat modellarini "hazm qilishga", ularga moslashishga koʻniktirmoqda. Shu tariqa nafaqat zamonaviy totalitar jamiyatlarda, balki demokratik sotsiumlarda ham mustaqil fikrlash, ishlash va yashash imkoniyatlaridan bebahra shaxsda oʻz hayotiga befarqlik ruhiyati yuzaga kelmoqda. Befarqlik yuqorida ta'kidlanganidek qator ijtimoiy va ruhiy omillar natijasida paydo boʻladi va quyidagi oqibatlarga olib keladi:

- iqtisodiy oqibatlar shaxs oʻz funksional vazifalarini "qoʻl uchida" bajara boshlaydi, ishlab chiqarish jarayonida tashabbuskorlik koʻrsatmay qoʻyadi va bu orqali iqtisodiy taraqqiyotga xavf soladi;
- siyosiy oqibatlar shaxs siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etmaydi, va buning natijasida jamiyat siyosiy tizimining rivoji sekinlashadi, oqibatda siyosiy xavfsizlikka tahdid oshib boradi;
- ijtimoiy oqibatlar shaxs ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etmaydi va oqibatda ijtimoiy hamjihatlikni yemiruvchi xavf paydo boʻladi;
- ma'naviy-axloqiy oqibatlar befarq shaxs jamiyatda ma'naviy-ruhiy muhitga, o'zgalarning axloqiy qiyofasiga e'tiborsiz bo'ladi va ko'plab ijtimoiy illatlarning ildiz otishiga sabab bo'ladi.

Soʻnggi yarim yilda iste'molchilik jamiyatining qaror topishi befarqlikning yana bir shakli – iste'mol befarqligini vujudga keltirdi. Shaxsni mahsulotning sifati ham, qanday yoʻllar bilan ishlab chiqarilgani ham, qaysi uslublar yordamida doʻkon javonlariga keltirilgani ham, ushbu mahsulotning shaxsiy ehtiyojlarga mos yoki mos emasligi ham, kundalik turmushi uchun kerak yoki kerak emasligi ham qiziqtirmay qoʻydi. Iste'molchilikni ulugʻlovchi jamiyatning vujudga kelishi uning a'zolari hayotiy maqsad-muddaolarini tamoman oʻzgartirdi. Bu maqsad aksariyat hollarda moddiy farovonlikni ta'minlash, ijtimoiy maqomni yuksaltirish bilan bogʻliq boʻlib qoldi. Kishilar xulq-atvori, yurish-turishi ham aynan ana shu maqsad-muddaoga boʻysundirildi. Bunday hayotiy pozitsiya axloqiy, estetik, axborot, mafkuraviy befarqlikning turli koʻrinishlarini vujudga keltirmoqda.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "O'zbekistonda shaxs befarqligi darajasi, sabablari va oqibatlari" deb nomlanib, unda yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida shaxs befarqligining darajasi va vujudga kelishi sabablari hamda befarqlikning ijtimoiy va shaxsiy oqibatlari tadqiq etilgan.

Oʻzbekistonda qaror topgan ijtimoiy turmush tarzi asrlar mobaynida befarqlikning keng ildiz otishiga imkon qoldirmay kelgan. Jamoaviy turmush tarzi xususiyatlari jamiyatning har bir a'zosini shaxslararo munosabatlarning, turfa an'analar, urf-odatlar, hashar, xayriya kabi ijtimoiy yumushlarning faol ishtirokchisiga aylantirardi. Shu boisdan jamiyat a'zolari yuzlab yillar davomida jamiyatda sodir boʻlayotgan jarayonlarga, undagi oʻz maqomlariga, oʻzgalarning hayoti va tashvishlariga, hamjihatlikda amalga oshirilgan tadbirlarga befarq boʻlmay kelganlar.

Dissertant fikricha, Oʻzbekistonning mustaqillikka erishishi kishilarning oʻz hayoti va taqdiriga, boshqalarning hatti-harakatlariga, jamiyatda sodir boʻlayotgan jarayonlarga qiziqishini yanada yuksaltirdi. Milliy madaniyatni tiklash, kishilarning madaniy merosga munosabatlarini oʻzgartirish masalalarining davlat e'tibori ostida boʻlishi jamiyat a'zolarini milliy urf-odatlar va an'analarning faol ishtirokchilariga aylantirdi. Shuningdek, oʻrta, oʻrta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy fanlarning faol oʻqitilishi yoshlarni, mamlakat boʻylab amalga oshirilgan ma'naviyma'rifiy ishlar esa yetuk yoshdagi kishilarni ijtimoiy jarayonlarga befarq boʻlmaslikka undab turdi.

Dissertatsiyada yangi asrda vujudga kelgan shart-sharoitlarda jahonning barcha mamlakatlarida boʻlgani kabi Oʻzbekistonda ham kishilarda befarqlik alomatlari

paydo bo'layoganligi qayd etilgan. Xususan, birinchidan, ijtimoiy voqelikka shunchaki moslashishni ma'qul topayotgan, voqealar oqimiga jimgina ergashib ketayotgan, o'z hayoti va faoliyatini o'zgartirishga intilmaydigan kishilar toifasi vujudga kelmoqda. Ikkinchidan, "ko'zi ochiq holda uxlayotgan, o'zini ko'rib koʻrmaslikka, bilib bilmaslikka olayotgan yoxud umuman befarq, loqayd boʻlib uchramoqda. insonlar"¹² Uchinchidan, borayotgan ekologik mamlakatning ekologik taqdiriga befarq boʻlgan kimsalar paydo boʻlmoqda. To 'rtinchidan, iste' mol qilayotgan mahsulotlariga befarq bo'lgan, xaridiga e'tiborsiz kishilar toifasi shakllanmoqda. Beshinchidan, jamiyatning ayrim a'zolarida axloqsizlik holatlariga e'tiborsizlik, befarqlik yuzaga kelmoqda. Oltinchidan, kiyinishda, ovqatlanishda, yurish-turishda, mehnat faoliyatida, maishiy turmushda estetik normalarga amal qilmaydigan, ularga befarq boʻlgan kishilar shakllanmoqda. kishilarning muayyan axborot Yettinchidan, qismida vositalari texnologiyalaridan maqsadsiz foydalanish yoxud ularni nomaqbul niyatlarda qoʻllash odati paydo boʻlmoqda. Sakkizinchidan, mafkuraviy jarayonlarga beparvo, loqayd qarash kayfiyati ildiz otmoqda. Dissertatsiyada turli fakt va argumentlar yordamida mazkur befarqlik shakllarining namoyon bo'lishi xususiyatlari ochib berilgan.

Dissertant ilmiy manbalar tahlili asosida ommaviy axborot vositalarida ma'lum qilinayotgan qator fakt va ma'lumotlar, statistik raqamlar O'zbekistonda yuz koʻrsatayotgan turli shakllardagi befarqlik alomatlari bugunning oʻzidayoq jamiyat uchun ham, befarq shaxs uchun ham jiddiy oqibatlarga olib kelayotganini ta'kidlagan. Befarqlik shakllarining ijtimoiy oqibatlarini quyidagicha ifodalagan: (Qarang: 2-rasm)

Oʻz hayoti va taqdiriga befarqlik	Ijtimoiy konformizm xavfini oshirmoqda;
Ijtimoiy jarayonlarga befarqlik	Ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish imkoniga putur yetkazmoqda;
Ekologik befarqlik	Ekologik muhitni sogʻlomlashtirish imkonini pasaytirmoqda;
Iste'mol befarqligi	Iste'mol bozorini optimallash-tirish imkonini kamaytirmoqda;
Axloqiy befarqlik	Axloqiy muhitni sogʻlomlashtirish jarayonini sekinlashtirmoqda;
Estetik befarqlik	Jamiyatning estetik yuksalishini zaiflashtirmoqda;
Axborot befarqligi	Jamiyat axborot xavfsizligiga tahdid solmoqda;
Mafkuraviy befarqlik	Jamiyat mafkuraviy xavfsizligiga tahdid solmoqda.

2-rasm. Befarqlik shakllarining ijtimoiy oqibatlari

¹² Qarang: Меликулова Б. Лоқайдлик, бефарклик ва бокимандалик: ислохотлар ҳакида фикр юритишни истамаёт-ганлар хам бор.// uza.uz, 2023, 19 апрель.


Tadqiqotda befarqlik shakllarining ijtimoiy oqibatlari tahlil etilgan boʻlib, ular sabab va oqibat dialektikasi tarzida asoslab berilgan. Jumladan, jamiyatning ayrim a'zolari ruhiyatida o'z hayoti va taqdiriga befarqlik alomatlarining yuzaga kelishi ijtimoiy konformizm xavfini oshirib yuborayotganligi qayd etilgan. Ijtimoiy jarayonlarga befarqlik alomatlarining paydo bo'layotgani esa ahamiyatli ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish imkoniyatlariga putur yetkazayotganligi asoslab berilgan. Ekologik befarqlik hollari mamlakatdagi ekologik muhitni imkoniyatlarini sog'lomlashtirish pasaytirayotganligi, iste'mol qilayotgan mahsulotlariga e'tiborsiz kishilar toifasining shakllanayotgani iste'mol bozorini optimallashtirish choralari samarasini tushirayotganligi mantiqiy asoslab berilgan. Axloqiy befarqlik alomatlarining yuzaga kelishi axloqiy muhitni sogʻlomlashtirish jarayonini, estetik befarqlik belgilarining koʻzga tashlanayotgani jamiyatning estetik yuksalishini sekinlashtirmoqda. Jamiyatning ayrim a'zolari ruhiyatida axborot befarqligi alomatlarining yuzaga kelayotgani uning axborot xavfsizligiga tahdid solmoqda. Mafkuraviy jarayonlarga beparvolik mafkuraviy xavfsizlikka tahdid darajasiga koʻtarilmoqda.

Tadqiqotchi fikriga koʻra, Oʻzbekistonda ayrim shaxslarda befarqlik alomatlarining vujudga kelishi nafaqat jamiyat uchun, balki befarqlik girdobiga yoʻliqqan shaxs uchun ham xatarli oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Bu oqibatlar befarq shaxs ijtimoiylashuvi zaiflashishida, ijtimoiy faolligi pasayishida, turmushining sanitariya-gigienik holati yomonlashishida, salomatligi uchun xatar tugʻilishida, axloqiy kamoloti sekinlashishida, estetik didi buzilishida, olam haqidagi tasavvurlari deformatsiyalashishida, vayronkor gʻoyalar ta'siriga tushish xavfi oshishida namoyon boʻlmoqda.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "Shaxs befarqligini bartaraf etish imkoniyatlari" deb nomlanib, unda jamiyatdagi jarayonlardan xabardorlikni oshirish shaxs befarqligiga barham berishning muhim omili sifatida tadqiq etilgan hamda befarqlikni bartaraf etishda vatanparvarlik tarbiyasining roli ochib berilgan.

Tadqiqotchi shaxs befarqligiga barham berish imkoniyatlari ikki yoʻl bilan bogʻlagan. *Birinchidan*, shaxs befarqligiga barham berish uchun eng avvalo uning jamiyatdagi jarayonlardan xabardorligi darajasini oshirish, shu maqsadga xizmat qiladigan ijtimoiy mexanizmlarni takomillashtirish zarur. Chunki shaxs jamiyatda yuz berayotgan voqealardan voqifligi meyori ortgani sayin ularga boʻlgan qiziqishi ham orta boradi. Bu qiziqish pirovardida uning ijtimoiy faolligi oshishiga turtki berishi mumkin. *Ikkinchidan*, shaxs befarqligiga barham berish uchun undagi vatanparvarlik tuygʻularini kamol toptirish, buning uchun esa vatanparvarlik tarbiyasini yangicha mazmun bilan boyitish lozim boʻladi. Chunki Vatanni anglagan, uning manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qoʻyishga koʻnikkan shaxs yurtda yuz berayotgan voqea va hodisalarga befarq qarab turmaydi, oxiroqibat oʻz faoliyatini ushbu manfaatlar sari yoʻnaltirishga imkon topadi.

Dissertatsiyada shaxs befarqligiga barham berish uchun xabardorlikning quyidagi shakllari meyorini oshirish zarurati asoslab berilgan: (Qarang: 3-rasm)



3-rasm. Shaxs befarqligiga barham beruvchi xabardorlik shakllari

Shaxs befarqligiga barham berishning muhim omili uning iqtisodiy, ekologik, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, madaniy, mafkuraviy xabardorligi darajasini oshirish bilan bogʻliq. Chunki:

